

TURK VA O‘ZBEK O‘XSHATISHLARI HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi,*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta o‘qituvchi**University of Business and Science**irodajamoliddinova8@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va turk tillaridagi o‘xshatishlarning grammatik, semantik, uslubiy yo‘sinda o‘rganilgan. Shunga ko‘ra, mazkur maqolada, turk va o‘zbek tillaridagi o‘xshatishlarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini qiyosiy, lingovamadaniy va mavzuviy jihatdan tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Xususan, turk va o‘zbek tili o‘xshatishlarining har ikki tilda qay darajada o‘rganilganligini aniqlandi.

Kalit so‘zlar: O‘xshatishlar, turk va o‘zbek tillari, lingvokulturologiya, semantika.

Abstract. This article examines similes in Uzbek and Turkish from a grammatical, semantic, and stylistic perspective. Accordingly, the main goal of this article is to comparatively, linguoculturally, and thematically study the linguoculturological and semantic features of similes in Turkish and Uzbek. In particular, it was determined to what extent Turkish and Uzbek language comparisons were studied in both languages.

Keywords: Metaphors, Turkish and Uzbek languages, linguoculturology, semantics.

Аннотация. В статье рассматриваются сходства узбекского и турецкого языков в грамматическом, семантическом и стилистическом плане. Соответственно, основной целью данной статьи является сравнительное, лингвокультурологическое и тематическое исследование лингвокультурологических и семантических особенностей сравнений в турецком и узбекском языках. В частности, было определено, насколько хорошо изучены турецкие и узбекские сравнения в обоих языках.

Ключевые слова: сравнения, турецкий и узбекский языки, лингвокультурология, семантика.

Kirish. Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan o‘xshatishlar ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lganidir.

Shu sababli o‘xshatishlar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda foydalanibgina qolmay balki badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotlarda ham doimiy ravishda qo‘llanilib kelingan va bugungi kunda ham juda faoldir.

O‘xshatishlar milliy dunyoqarash, tabiat va jamiyatga munosabat, dunyoni anglashdagi milliy tafakkur, taqqoslash mahorati bilan chambarchas bog‘liqdir. Xalq ijodiy tafakkuri mahsuli sifatida “...xalqning muayyan predmet, belgi, harakat-holatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarzi o‘xshatishlarda namoyon bo‘ladi”[1:94].

O'xshatish - badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektning orazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi. Har bir millatning o'ziga xos o'xshatishlari mavjud.

O'xshatishlar tilning linvomadaniy birligi sifatida e'tirof etiladi. Bir xalqning o'xshatishlari boshqa xalqlarnikiga mos kelmasligi mumkin. Bu ham bo'lsa, har bir xalqning o'z mentaliteti, diniy va dunyoviy qarashlari, geografik o'rni, yashash sharoitining har xilligi bilan bog'lanadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va kognitiv-lingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Qat'iyat konseptining semantik uzvlari badiiy adabiyotlar, publitsistik va rasmiy-huquqiy matnlardan yig'ilgan misollar asosida aniqlandi. Olingan til birliklari konseptual tahlil asosida guruhlariga ajratildi.

Natijalar. Dunyoda til haqidagi ta'limotlar taraqqiyotining turli davrlarida gox e'tirof etilgan, gox rad qilingan yoki unutilgan (yoxud unuttirilgan) bu xaqiqat o'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida, xususan, bugun tilshunoslikning turli yo'nalishlaridagi xaqqoniy tadqiqotlarning chinakam tamal toshiga aylandi. Jumladan, antropotsentrik tilshunoslik, soddaroq aytganda, markazida inson turadigan tilshunoslik mazkur xaqiqatga asoslangan, uning namoyon bo'lish yo'llarini tadqiq etish va asoslashga qaratilgan eng istiqbolli yo'nalishdir. Bu yo'nalishning tarmoqlaridan biri - lingvokulturologiya yoki lisoniy madaniyatshunoslik bo'lib, u tilni "til - madaniyat - inson" uchligi doirasida o'rganadi, bu fan bugun keng iste'molda bo'lgan milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet, milliy xarakter kabi tushunchalarning negizini til tashkil etishi tilsiz ularning moxiyati barqaror bo'la olmasligini ochib berishni asosiy maqsad deb biladi [2:5]. Demak, xalqning tiynati va tabiatini, ruhiyati va mentalitetini tildan ayri xolda tasavvur qilib xam, tadqiq etib ham bo'lmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli so'z, ibora-ifodalarda xalqning mental o'ziga xosligi muayyan tarzda in'ikosini topadi. Zotan, bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli so'z, ibora-ifodalarda xalqning mental o'ziga xosligi muayyan tarzda in'ikosini topadi. Zotan, bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigoxi, idroki va tafakkuri mahsuli o'laroq dunyoga kelgan.

Insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida kiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi.

Mantiq ilmida xulosa chiqarishning turli shakllari, xususan, uning maxsus shakli - analogiyaga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu fan mutaxassislarining ta'kidlashicha, "analogiya deb o'xshatish orqali bir belgining ikki buyumda borligini aniqlab, bu buyumlarning boshqa o'xshash belgilarga ega ekanini ko'rsatishga aytiladi. Birinchi narsa

yoki hodisaning hamma belgilari biz uchun tanish. Ikkinchi narsa yoki hodisaning faqat ba'zi bir belgilarinigina bilamiz. Biz bunday vaqtda bu ikki narsa yoki hodisani bir-biriga o'xshatamiz".

Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsuridan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, 2) unga o'xshash bo'lgan narsa yoki obyekt 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi va 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi. O'zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo'lgani kabi, o'xshatishlar to'rt unsuridan tarkib topadi va biz ularni o'xshatish subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi, deb nomlaymiz.

Avvalo, ta'kidlash lozimki, o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi, Shuning uchun xam ular nutqda xamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalkq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda aloxida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofik ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmagani, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy xolat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. Masalan: So'fining tani shu top-da Arabiston tog'larining saratondagi toshlariday qizib yonardi(Cho'lpon. Kecha va kunduz). Bu gapdagi o'xshatish konstruksiyasi erkin o'xshatish bo'lib, u Eshonga ishonib, rasvo bo'lgan, haj ilinjida kun o'tkazgan Razzok so'fining ruhiy holatini favqulodda aniklik bilan ifodalash maqsadida Cho'lpon tomonidan yaratilgan. Mana bu misollarda xam ana shunday o'ziga xos, erkin o'xshatishlarni ko'rish mumkin: Miryoqub ...ikki ki-shining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz li-kopiday ura boshpadi(Cho'lpon. Kecha va kunduz). Bular qiyqiriq solishib, tobiga kelgan choydshdek sharaqlashib kampir bilan o'ynasharkan... (Cho'lpon. Kecha va kunduz). Xayollar qo'ymaydi o'z holimizga – Lo'livachchalardek yopishqoq, kir-chir (I. Mirzo. Ey dil). Hilol yanglig' ochiq qolgan savollarim, Ellar quvnab-quvnab titdi varoqlarim (I.Mirzo.Azoblarim).

Muhokama. O'zbek tilidagi yeryon g'oq, yer tut, anjir, shaftoli kabi predmet nomlari shunday qiyoslash natijasi emasmikan? Bu masalaning bir tomoni, masalaning biz uchun zarur bo'lgan tomoni boshqa: yaqin-yaqinlargacha o'zbeklar banan, apelsin, ananas kabi predmetlarning na ma'zasini, na hajmini bilar edilar.

(Hozir ham qishloqlarda bu narsalar haqida tasavvurga ega bo'lmagan kishilar uchraydi). Agar biz qulupnayning ma'zasi haqida so'zlamochi bo'lsak, u tanish bo'lmagan kishiga tutning mazasini chog'ishtirib izohlashga majbur bo'lamiz. Yoki bo'lmasa, sizga tanish bo'lmagan qizning qoshini ta'riflash uchun qaldirg'och uchib borayotganidagi qanotining chiroyli ko'rinishini ko'z oldimizga keltiramiz, agar uning qomatini izohlamoqchi bo'lsak, sarv daraxtining chiroyli bir ko'rinishi tasvirlaymiz. Bir parcha patir, olamga tatir topishmo g'ida oy patirga o'xshatilayapti. Bu o'rinda shu darajada noziklik, aniqlik borki, uni inson sezgisining, inson aql - zakovatining kuchini yaqqol ko'rsatuvchi dalillarning biri desa bo'ladi. Haqiqatdan ham oy nega patirga o'xshatiladi? Nega quyoshni patirga o'xshatish mumkin emas? Sabab hammaga aniq bo'lsa kerak. Chunki oyda ham, patirda ham, dog' bor, bu esa ularni bir -biriga o'xshatishga asos bo'lgan, quyoshda esa dog' yo'q.

Xulosa. O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Xulosa shuki, bu o'rinda ma'lum predmet bir predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet biror predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin. Prof. R. Qo'ng'urov o'xshatish haqida o'zining "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida shunday degan: Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emo tsionallik, ham baholash qimmatini yo'qotgandir. Bu tipdagi o'xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С.65.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – B. 11.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati: - T.: "Universitet" nashriyoti – 2000, II jild; -530 b.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik: "Sangzor" nashriyoti, Jizzax – 2006
5. Волкова А. А. Языковая репрезентация гендерных и возрастных особенностей концепта "beauty" в англоязычных текстах рекламы косметики // Современные научные исследования и инновации. 2015. № 12.
6. O'TIL: - T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006; I-V tomlar.
7. Muhayyo Hakimova. (2024). The Influence of National Thinking on the Formation of Abstract Vocabulary. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 2(5), 447–450.